

QASHQADARYO VILOYATIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQUISH: IMKONIYATLAR VA ISTIQBOLLAR

Islomova Farida Axad qizi

Nordik xalqaro universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada Qashqadaryo viloyatida turizmni rivojlantirish strategiyasi tahlil qilindi. Hududning tabiiy, tarixiy va ijtimoiy-iqtisodiy resurslari baholandi. Mintaqaviy turizmni rivojlantirish omillari, ustuvor yoʻnalishlari va amalga oshirish mexanizmlari aniqlandi. Togʻ turizmi, sogʻlomlashtirish, agro va ekoturizm imkoniyatlari oʻrganildi. Infratuzilmani modernizatsiya qilish, investitsiyalarni jalb etish va raqamlashtirishning ahamiyati asoslandi. Tadqiqot natijalari hududda turizmni barqaror rivojlantirish va iqtisodiy faollikni oshirishga xizmat qilishi koʻrsatildi.

Kalit soʻzlar: turizm, mintaqaviy rivojlanish, strategiya, infratuzilma, investitsiya, ekoturizm, Qashqadaryo

Аннотация

В статье проанализирована стратегия развития туризма в Кашкадарьинской области. Оценены природные, исторические и социально-экономические ресурсы региона. Определены факторы, приоритетные направления и механизмы развития регионального туризма. Изучены возможности горного, оздоровительного, агро- и экотуризма. Обоснована роль модернизации инфраструктуры, привлечения инвестиций и цифровизации. Результаты исследования показали значимость развития туризма для повышения экономической активности региона.

Ключевые слова: туризм, региональное развитие, стратегия, инфраструктура, инвестиции, экотуризм, Кашкадарья

Abstract

The article analyzed the tourism development strategy in Kashkadarya region. Natural, historical and socio-economic resources were assessed. Key factors, priority directions and implementation mechanisms of regional tourism were identified. Opportunities in mountain, health, agro and ecotourism were examined. The importance of infrastructure modernization, investment attraction and digitalization was justified. The findings indicated that tourism development contributes to regional economic growth and activity.

Keywords: tourism, regional development, strategy, infrastructure, investment, ecotourism, Kashkadarya

KIRISH

Mintaqaviy turizm - bu muayyan bir hudud (viloyat, tuman yoki bir nechta davlatni birlashtirgan region) doirasida sayyohlik xizmatlarini tashkil etish va rivojlantirishdir.

Mintaqaviy turizmning asosiy jihatlari haqida qisqacha to'xtalib o'tadigan bo'lsak, bunda u quyidagilarni namoyon qiladi:

1. Mintaqaviy turizmni rivojlantirish omillari:

- tabiiy-geografik omil: iqlim, tog'lar, suv havzalari, noyob tabiat manzaralari.
- tarixiy-madaniy meros: qadimiy obidalar, ziyoratgohlar, mahalliy urf-odatlar va milliy oshxona.

- infratuzilma: sifatli yo'llar, mehmonxonalar, transport aloqasi va servis xizmatining yaxshi yo'lga qo'yilgani.

- iqtisodiy-huquqiy muhit: davlat tomonidan beriladigan imtiyozlar, investitsiyalar va xavfsizlikning ta'minlanishi.

- raqamlashtirish: turistik obyektlar haqida internetda ma'lumotlarning borligi va onlayn bron qilish imkoniyatlari.

2. Mintaqaviy turizmni rivojlantirishdan ko'zlangan asosiy maqsadlar sifatida quyidagi natijalarga erishish ko'rsatib o'tiladi:

- iqtisodiy o'sish: mahalliy byudjetga tushumlarni ko'paytirish va tashqi investitsiyalarni jalb qilish.

- ish o'rinlari: mehmonxona, restoran, transport va hunarmandchilik sohalarida yangi ish joylarini yaratish (ayniqsa qishloq joylarda).

- infratuzilmani yaxshilash: turizm bahonasida yo'llar, elektr va suv ta'minoti, aloqa tizimlarining modernizatsiya qilinishi.

- madaniy almashinuv: mahalliy qadriyatlarni dunyoga tanitish va xalqlar o'rtasidagi do'stlikni mustahkamlash.

- ekologik barqarorlik: tabiat resurslaridan oqilona foydalanish va ularni asrab-avaylash madaniyatini shakllantirish.

METODOLOGIYA

Mazkur maqolada mintaqaviy turizm sohasini rivojlantirish masalalari nazariy va amaliy nuqtai-nazaridan o'rganib chiqishga harakat qilingan bo'lib, bunda avvalambor turizm sohasiga oid ko'plab xalqaro hamda milliy ilmiy manbalar va adabiyotlar tahlil qilindi, bu tahlil asosida mintaqaviy turizm sohasini rivojlantirishning dolzarb jihatlari aniqlandi, turizmni rivojlantirish uchun ichki va tashqi manbalardan investitsiyalarni jalb qilish, mavjud mahalliy turizm shart-sharoitlari, obyektlari va imkoniyatlaridan oqilona foydalanish masalalari bo'yicha nazariy asoslar o'rganildi.

Tadqiqotda qiyosiy tahlil usullari, zamonaviy boshqaruv va ilg'or texnologiyalarni qo'llash bilan turizm xizmatlarini ishlab chiqarish hamda turizm xizmatlari assortimentini kengaytirishga investitsiyalarni keng jalb qilishga ta'sir etuvchi omillar tadqiq qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatimiz mintaqalarida, jumladan, uning yirik hududiy birliklaridan biri sanaluvchi Qashqadaryo viloyatida ham turizmni rivojlantirish, uni iqtisodiy yuksalish drayverlaridan biriga aylantirish uchun katta imkoniyatlar mavjud bo'lib, bu borada hududiy turizmni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish bu yo'ldagi maqsadlarga erishishda katta ahamiyatga ega bo'ladi [3]. Qashqadaryo viloyatida turizmni

rivojlantirish strategiyasi hududning o'ziga xos tabiiy, tarixiy va madaniy imkoniyatlarini birlashtirgan holda kompleks yondashuvni talab qiladi. Mana shunday kompleks yondashuv bilan mintaqada turizmni rivojlantirishga mo'ljallangan strategiyaning asosiy yo'nalishlari va amalga oshirish mexanizmlari ajratib ko'rsatish mumkindir (1-chizma).




1-chizma. Mintaqaviy turizmni rivojlantirish strategiyasi elementlari¹.

Mintaqada turizmni rivojlantirish strategiyasining asosiy yo'nalishlarini belgilab olishda hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, mahalliy aholining mentalitetiga xos bo'lgan urf-odatlar, qadriyatlar va milliy o'ziga xosliklarga e'tibor berish, hududning tabiiy-iqlimiy, geografik joylashuvi, tarixiy-madaniy yodgorliklarga boyligi, agrosanoat, gastronomik, sport-sog'lomlashtirish bo'yicha imkoniyatlari, transport-logistika va boshqa infratuzilmaviy jihatlariga diqqat qaratish lozim bo'ladi [4]. Shulardan kelib chiqqan holda Qashqadaryo viloyatida mahalliy turizm sohasini rivojlantirishda asosiy yo'nalishlar sifatida quyidagilarni belgilab olish tavsiya etiladi:

1. Tog' turizmi va kurort zonalarini kengaytirish;
2. Tibbiyot, xalq tabobati va sog'lomlashtirish turizmi;
3. Turistik infratuzilmani rivojlantirish va logistika loyihalarini amalga oshirish;
4. Agro va ekoturizmni rivojlantirish;
5. Madaniy-ma'rifiy turizm.

O'z-o'zidan ma'lumki, mazkur yo'nalishlarni rivojlantirish ma'lum bir miqdordagi moddiy, moliyaviy va mehnat resurslarini talab qiladi. Mana shu resurslar va imkoniyatlardan oqilona foydalana bilish uchun samarali mexanizmlarni ishlab chiqish, uning amalga oshirilishini jarayonlarini to'g'ri tashkil eta olish kerak bo'ladi. Tadqiqot muallifining fikricha, mintaqaviy turizm sohasini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari bo'yicha ishlarni amalga oshirishda quyidagi mexanizmlar samarali natija bera oladi deb hisoblanadi (2-chizma):

¹Muallif ishlanmasi.



2-chizma. Mintaqaviy turizmni rivojlantirish mexanizmi¹.

Mazkur mexanizm bir necha bosqichlarni oʻz ichiga olib, bunda ularni amalga oshirish ketma-ketligi quyidagi tartibda boʻladi:

1. Mintaqaviy turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish - turistik obyektlarga olib boruvchi yoʻllarni taʼmirlash (masalan, “Maydanak” va “Langar ota”ga boruvchi 38 km yoʻl), muhandislik-kommunikatsiya tizimlarini yaxshilash, yangi marshrutlarni ochish.

2. Turistik mahsulotlarni diversifikatsiya qilish (turistik xizmatlarni kengaytirish) - ziyorat turizmidan tashqari, ekoturizm (Kitob, Yakkabogʻ), tibbiyot turizmi (Muborak va Kosondagi geyzer suvlari) va agroturizm yoʻnalishlarini yaratish.

3. Turistik xizmatlar koʻrsatish jarayonlarini raqamlashtirish va marketing - turistik obyektlarni onlayn platformalarga integratsiya qilish va «Qashqadaryo turizm brendi»ni (masalan, “Gʻuzor tandiri” geografik koʻrsatkichi asosida) targʻib qilish.

4. Turistik xizmatlar boʻyicha mutaxassis-kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish - turizm xizmatlarini koʻrsatish sifatini oshirish uchun mahalliy aholi va soha mutaxassislarini sifatli turistik xizmatlar koʻrsatishga oʻqitish [1].

Bu mexanizmlarni ishga solish jarayonida turli xil resurslar manbalari talab etilib, ular qatorida Qashqadaryo viloyati hokimligi huzurida tashkil etilgan viloyat hududida turizmni rivojlantirish jamgʻarmasi mablagʻlari, Oʻzbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamgʻarmasi tomonidan ajratiladigan maqsadli mablagʻlar (misol uchun, bu jamgʻarma tomonidan 2025-yilda Qashqadaryo viloyatida turizmni rivojlantirish maqsadlari uchun 200,0 mlrd soʻm miqdorida mablagʻlar ajratilgan), xorijiy va

¹Muallif ishlanmasi.

mahalliy investorlar tomonidan investitsiyalar (bu investitsiyalarni turistik mahalla va mehmon uylarini tashkil etish uchun jalb qilish mumkin) kabilarni keltirib o‘tish mumkindir.

Mana shunday imkoniyatlar Qashqadaryo viloyatida mintaqaviy turizm sohasini rivojlantirishga katta hissa qo‘shib, yaqin yillar (2025-2030 yy.) ichida amalga oshirilishi rejalashtirilgan va investorlar uchun yuqori jozibadorlikka ega bo‘lgan aniq istiqbolli loyihalar ro‘yxati shakllantirilganligini qayd etib o‘tish zarur bo‘ladi. Mazkur istiqbolli loyihalar o‘z ichiga quyidagilarni oladi [2]:

1. Tog‘ turizmi va kurort zonalarini yanada kengaytirish - bu yo‘nalishda viloyatning eng katta investitsion "o‘sish nuqtasi" shakllantirish ko‘zda tutilib, bunda quyidagilar amalga oshirilishi rejalashtirilgan:

- Shahrisabz tumanida «G‘yelon» xalqaro kurortini barpo etish - bu umumiy qiymati 300,0 mln AQSH dollarini tashkil etuvchi yirik turistik loyiha bo‘lib hisoblanadi - bu umum mavsumiy kurortni barpo qilish O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-dekabrda "G‘elon turistik-rekreasion zonasini va xalqaro umum mavsumiy kurortni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ № 424-sonli qarori asosida amalga oshirilmoqda. Bu kurortni barpo etish jarayonida 8,3 km uzunlikdagi 3 ta dor yo‘li (kanat), 3 va 5 yulduzli mehmonxonalar, tog‘-chang‘i trassalari, ziplayn va rodelban barpo etish ko‘zda tutilgan. Birinchi bosqichni ishga tushirish 2026-yil dekabr oyiga rejalashtirilgan.

- "Miraki" sayyohlik markazini tashkil etish jarayonida 205 gektar maydonda butik-mehmonxonalar, vinochilik korxonasi, akvapark, botanika bog‘i va hunarmandchilik markazi qurish loyihalarini amalga oshirish ishlarini nihoyasiga yetkazish.

- Qamashi tumanining baland tog‘li hududida "Maydanak" tog‘-turistik markazini tashkil etish - bunda 58 gektar maydonda astro-turizm (planetariy, observatoriya), glamping (bu tabiat qo‘ynida, chodir yoki maxsus yengil uychalarda, lekin mehmonxona darajasidagi qulayliklar bilan dam olishni tashkil etish) va kemping (bu avtomashinalarda sayohat qiluvchilar uchun maxsus jihozlangan, chodir yoki yengil uylardan iborat yozgi dam olish maskanlarini tashkil qilish)lar, vertikal ko‘ngilochar maskanlarni qurish ko‘zda tutiladi.

2. Tibbiyot va sog‘lomlashtirish turizmiga e‘tiborni kuchaytirish hamda bunga mahalliy turistlarni keng miqyosda jalb qilish. Mazkur yo‘nalishda quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ldi:

- Kitob tumanidagi kardiologiya markazi - xorijiy investorlar (masalan, kardiologiya sohasida katta tajriba to‘plagan Rossiya Federatsiyasi bilan) hamkorligida zamonaviy diagnostika va davolash markazini qurish.

- Muborak va Koson tumanlari hududidagi termal suvlar negizida mavjud shifobaxsh geyzer suvlaridan foydalanuvchi zamonaviy sanatoriy va dam olish maskanlarini barpo etish.

- Miraki sanatoriylari - tog‘ havosi va suv resurslaridan foydalangan holda rehabilitatsiya markazlarini tashkil qilish.

3. Turistik infratuzilma va logistika loyihalari sonini ko‘paytirish - bu yo‘nalishda davlat-xususiy sheriklik (DXSH) asosida quyidagilarni amalga oshirish mumkin:

- avtomobil yo‘llari - “Langar ota” ziyoratgohi, “Maydanak” va “Amir Temur g‘ori” marshrutlarini o‘zaro bog‘lovchi yagona turistik yo‘l (yoki turistik halqa) barpo etish va servis nuqtalarini qurish.


- qayta tiklanuvchi energiya - bu borada tog‘li hududlardagi turistik obyektlarni energiya bilan ta‘minlash uchun kichik GES (masalan, Oqsuv daryosida 24 MVtli 3 ta GES) va quyosh panellari stansiyalarini qurish.

4. Mintaqaviy turizm xizmatlari qatoriga yangi turistik mahsulotlar - agro- va ekoturizm xizmatlarini joriy qilish:

- G‘elon, Sarchashma va Ko‘l qishloqlarida “an‘anaviy turmush tarzi”ni saqlab qolgan holda mehmon uylari va etno-markazlar tarmog‘ini kengaytirish yo‘li bilan eko-qishloqlarni shakllantirish.

- Kitob va Shahrisabz tumanlarining tog‘ oldi hududlarida intensiv bog‘lar va agro-turlar tashkil etish orqali mevali bog‘lar va ularni qayta ishlash jarayonini ko‘rsatuvchi turistik marshrutlar yaratish.

- gastronomik turizm elementlari sifatida “G‘uzor tandiri”, “Chiroqchi yaxna go‘shiti” kabi milliy brendlar asosida xalqaro festivallar o‘tkazish, ularga xorijiy va mahalliy turistlar tashrifini tashkil etish.



3-chizma. Mintaqada turizmni rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish mexanizmi¹.

¹Muallif ishlanmasi.

Shunday qilib, yuqorida keltirib o‘tilgan istiqbolli loyihalarni amalga oshirish, buning uchun mavjud resurslar va imkoniyatlardan oqilona foydalanish yo‘li bilan bosqichma-bosqich ravishda Qashqadaryo viloyati mahalliy turizm sohasini rivojlantirishning ilmiy asoslangan va texnik-iqtisodiy jihatdan puxta ishlab chiqilgan mexanizmini shakllantirish va uning asosida viloyat turizm sohasining yanada rivojlanishi, mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishini ta’minlashda muhim o‘ringa ega tarmoqqa aylanishi uchun zamin hozirlash mumkin bo‘ladi [4].

Umuman olganda, Qashqadaryo viloyatida turizmni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish viloyatning demografik, iqlimiy, tabiiy-geografik joylashuvi, texnik-texnologik rivojlanganlik darajasi kabi unsurlardan iborat bo‘ladigan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganlik darajasini e’tiborga olib ishlab chiqilishi lozim bo‘ladi. Bunda eng muhim e’tibor kadrlar resurslariga, turizm sohasining mahalliy aholi uchun yaratib bera oladigan ish bilan bandlik, daromad manbasini kengaytirish kabi omillarga qaratilishi zarurdir. Chunki, mahalliy turizm sohasining rivojlantirishdan ko‘zlanadigan asosiy maqsadlardan biri ham aynan hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishiga ko‘maklashish, buning uchun esa tub aholining kundalik turmush farovonligini ta’minlaydigan daromad manbalarini kengaytirishdan iboratdir [4].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Qashqadaryo viloyatida turizm sohasini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish bo‘yicha dolzarb masalani atroflicha o‘rganib chiqish asosida biz quyidagicha takliflarni o‘rtaga tashlashni lozim deb topamiz:

1. Tog‘ turizmi va kurort zonalarini yanada kengaytirish - bu viloyatda yangi turizm xizmatlari turlari paydo bo‘lishiga olib keladi va buning uchun Shahrisabz tumanida «G‘yelon» xalqaro kurortini, “Miraki” sayyohlik markazini va Qamashi tumanining baland tog‘li hududida “Maydanak” tog‘-turistik markazini tashkil etish ishlarini nihoyasiga yetkazish kerak bo‘ladi.

2. Tibbiyot va sog‘lomlashtirish turizmiga e’tiborni kuchaytirish va bunda Kitob tumanida kardiologiya markazi, Muborak va Koson tumanlari hududidagi termal suvlar, tog‘ havosi va suv resurslaridan foydalanuvchi Miraki sanatoriylarini tashkil qilish.

3. Turistik infratuzilma va logistika loyihalari sonini ko‘paytirish maqsadida “Langar ota” ziyoratgohi, “Maydanak” va “Amir Temur g‘ori” marshrutlarini o‘zaro bog‘lovchi yagona turistik yo‘l (yoki turistik halqa) barpo etish va servis nuqtalarini qurish.

4. Mintaqaviy turizm xizmatlari qatoriga yangi turistik mahsulotlar - eko-qishloqlarni shakllantirish, intensiv bog‘lar va agro-turlar tashkil etish orqali yangi turistik marshrutlarni yo‘lga qo‘yish, gastronomik turizm elementlari asosida xalqaro festivallar o‘tkazish, ularga xorijiy va mahalliy turistlar tashrifini tashkil etish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 13-mart PQ-96-sonli “Qashqadaryo viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni yanada jadallashtirish to‘g‘risida”gi qarori <https://lex.uz/docs/8087560>

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 2-mart VM-112-sonli “Qashqadaryo viloyatida turizmni sohasini yanada qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori - <https://lex.uz/docs/5316745>

3. Sh.R. Ruziyev. “O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish masalalari (xorijiy tajribalar asosida)” - “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2020-yil.

4. O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi. “Pandemiyadan keyingi sharoitda turizmning rivojlanishi: muammolar va yechimlar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari”, 2022-yil 22-noyabr.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, aprel, 4-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**